

O'zbekistonning qadimiy shaharlari




1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.



O'zbekiston qadimiy va go'zal diyor. Yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ko'plab tarixiy shaharlar bor.

Samarqand – O'zbekistonning eng qadimiy va mashhur shaharlaridan biri. U “Sharq gavhari” deb ataladi. Samarqandda Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi va Bibixonim masjidi joylashgan.



Buxoro – qadimiy ilm va madaniyat markazi. Bu yerda joylashgan Ark qal'asi, Minorai Kalon va Labi Hovuz dunyoga mashhur.

Xiva – qadimiy devorlari, tor ko'chalari va tarixiy binolari bilan tanilgan. Xivada Ichan qal'a majmuasi bor.

Bu shaharlar O'zbekistonning faxridir.




1-mashq. So'zlarni tartib bilan joylashtirib, gaplar tuzing.

- oilamiz, shahriga, Biz, Buxoro, boramiz, bilan.
- maydonida, suratga, Registon, tushdim, Men, Samarqanddagi.
- ko'p, Xivada, minoralar, Qadimiy, baland.
- Samarqandda, xolam, yashaydi, Mening.



2-mashq. Harflar aralashmasidan shaharlar nomini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.





3-mashq. Bir xil rangdagi so'zlardan gaplar tuzing.


shaharlar	bor	nonlari
chiroyli	maqbara	qadimiy
mashhur	O'zbekistonda	minoralar
juda	Xiva	dunyoga
shaharlar	Samarqandning	Buxoro
va	tarixiy	Registonda
ko'p	Samarqand	hisoblanadi




4-mashq. Rasmlar asosida gaplar tuzing.




Minorai Kalon
Buxorodagi me'moriy yodgorlik



Kalta Minor
Xivadagi minora



Bibixonim majmuasi
Samarqandda Bibixonimga
atab qurilgan me'moriy obida



Go'ri Amir maqbarasi
Samarqanddagi me'moriy
yodgorlik



Lug'atdagi so'zlarni yodlang. Ular ishtirokida beshta gap tuzing.

